



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
XALQARO TURON FANLAR AKADEMIYASINING
JIZZAX FILIALI

JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI
"IJTIMOIY FANLAR"
KAFEDRASI HAMKORLIKDA

"SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA MILLIY O'ZLIKNI
ANGLASH: TURON TARIXIY MEROSI VA
ZAMONAVIY RIVOJLANISH"
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

"UNDERSTANDING NATIONAL IDENTITY IN THE
ERA OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE:
TURAN HISTORICAL HERITAGE AND
MODERN DEVELOPMENT"

international scientific-practical conference

«ПОНИМАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В
ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА:
ТУРАНСКОЕ ИСТОРИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ
И СОВРЕМЕННОЕ РАЗВИТИЕ.»

международной научно-практической конференции

KONFERENSIYA MATERIALLARI
TO'PLAMI

(II - JILD, III - IV SHO'BALAR)

2026-YIL
4-APREL

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
XALQARO TURON FANLAR AKADEMIYASINING
JIZZAX FILIALI
JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI
“IJTIMOIY FANLAR”
KAFEDRASI HAMKORLIKDA**



**“SUN’IY INTELLEKT DAVRIDA MILLIY O‘ZLIKNI
ANGLASH: TURON TARIXIY MEROSI VA ZAMONAVIY
RIVOJLANISH”
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

**"UNDERSTANDING NATIONAL IDENTITY IN THE ERA OF
ARTIFICIAL INTELLIGENCE: TURAN HISTORICAL HERITAGE AND
MODERN DEVELOPMENT"
international scientific-practical conference**

**«ПОНИМАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В ЭПОХУ
ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: ТУРАНСКОЕ ИСТОРИЧЕСКОЕ
НАСЛЕДИЕ И СОВРЕМЕННОЕ РАЗВИТИЕ»
международной научно-практической конференция**

**KONFERENSIYA MATERIALLARI
TO‘PLAMI
(II - JILD, III-IV SHO‘BALAR)**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 16-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida 2026-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasi to‘g‘risida”gi 11-son buyrug‘ida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida 2026 yil 4 aprel kuni Jizzax politexnika institutida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

JIZZAX-2026

**JIZZAX UYEZDINING AHOLI SALOMATLIGI VA TIBBIY
XIZMAT MASALALARI**

(1866-1910 YILLAR)

Abduraximova Shaxnoza Asatullaevna

Muxammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalar universiteti

“Jismoniy madaniyat va gumanitar fanlar” kafedrasida dotsenti, t.f.f.d., PhD.

Тел: 94 621 00 11

shahnozaabdurahimova373@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi davrida Jizzax uyezdining tibbiy xizmat masalalari, xususan: aholiga ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlar, hududda yuzaga kelgan kasalliklar, ularni bartaraf etish chora tadbirlari, mavjud muammolar, sog‘liqni saqlash tizimining yo‘lga qo‘yilishi, shifoxonalarning qurilishi va ta‘minoti, o‘lkaning shifokorlar bilan ta‘minlanish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Sog‘liqni saqlash, yuqumli kasalliklar, Jizzax uyezdi, tibbiyot, shifoxona, tug‘ruqxona, harbiy lazaret, bezgak, vabo, zaxm, o‘lat va moxov kasalliklari.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida rus istilosidan so‘ng Turkistonda siyosiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda, qo‘shni hududlar aholisi va xarbiylarining kirib kelishi natijasida ijtimoiy o‘zgarishlar ham yuzaga kela boshladi. Xususan, 1866 yil 18 oktyabrda Jizzax shahri bosib olingandan so‘ng, bu yerlarni ushlab turish uchun 10 ta harbiy rota (har birida 200 – 250 askar) va 300 ta kazak qoldiriladi. Xarbiy

xizmatchilar hamda chor amaldorlariga tibbiy xizmat ko‘rsatilishini ta‘minlash maqsadida, bu yerda dastlab 4 o‘rinli tibbiyot punkti tashkil etildi[1].

1867 yili yili Jizzax hududlari Sirdaryo viloyatining alohida uyezdi maqomida Turkiston general-gubernato‘rligi tarkibiga kiritiladi. Rus ahli yashagan qismda cherkov, 30 ga yaqin xonadon bo‘lib, ko‘chalar tekis yotqizilgan va kerosin fonarlar bilan yoritilgan edi. Shahardagi yagona rus shifoxonasida shifokor, feldsher va doya xizmat ko‘rsatganlar. Tub aholi yashagan eski shahar qismida esa otlar uchun maydon, yem-xashak, mol bozori va turli do‘konlar joylashgan bo‘lib, serqatnov bo‘lgani sabab tartibsiz, chiqindilar bilan to‘lib-toshgan edi. Buxoro amirligidan tortib olingan yerlar chegaralarini qo‘riqlash uchun O‘ratepada joylashgan 2-Turkiston chiziqli batalyonda 1000 yaqin askar xizmat qilib, ularga tibbiy yordam berish uchun maxsus harbiy shifokor va feldsherlar faoliyat yuritganlar. 1872 yil 28 mayda Zominda xizmat qilgan oddiy askar Yakov Valkin batalyon shifokori N. Semenov ko‘rigiga olib kelinadi. Ikki kun o‘tib o‘lgan askarga shifokor vabo kasali tashxisini qo‘yyadi. Ikki kundan so‘ng Jizzax uyezdining Zomin, Savat va boshqa hududlarida kasallanish holatlari aniqlanadi.

U yerga yuborilgan shifokor I. Suvorov hamkasbi N. Semenovning tashxisini tasdiqlaydi. May oyida kasalikdan vafot eganlar soni 251 kishiga yetadi. Shundan so‘ng, Jizzax shahrining yangi qismida 50 kishilik vaqtinchalik yuqumli kasallar uchun shifoxona tashkil etiladi[2]. O‘lkada bunday yuqumli kasalliklar avj olishiga qaramasdan bironta ham shifokor faoliyat yuritmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, 1870 yilda Sirdaryo viloyatida 8 ta shifokor bo‘lib: viloyat bo‘yicha 1 ta, Toshkentda 1 ta va tumanlarga 6 ta shaklda taqsimlangan bo‘lsa, Jizzax va Chimkentda uyezd shifokori umuman bo‘lmagan. Ularning ishini tumanda joylashgan harbiy bo‘linmalarning kichik shifokorlari bajargan[3].

Yuqumli kasalliklar va ularni bartaraf etish chora tadbirlari.



Ushbu davrda o‘lkada suv taqchilligi sabab havza suvlarining uzoq muddat turib qolishi natijasida suvda turli kasallik chaqiruvchi bakteriyalar ko‘payadi. Buning oqibatida mamlakatda, aksariyati yuqumli hisoblangan oshqozon-ichak hamda teri-tanosil kasalliklari avj oladi. Shuningdek rus armiyasi, Turkiston hududlarida avval uchramagan yotoq kanasini olib keladilar bu esa mamlakatda turli yangi teri kasalliklarni tarqalishiga va mavjud kasalliklarni tezlikda tarqab epidemiya holatiga kelishiga sabab bo‘lgan. Bu davrda mamlakatda vabo, bezgak, zaxm, o‘lat va moxov kabi yuqumli kasalliklar tarqalishi ko‘payib bir necha bor epidemiya darajasiga ko‘tarilgan. Turkiston hududida 1872-1923 yillar oralig‘ida kamida 12 marotaba vabo kasalligi tarqalgan. (1872, 1892, 1904, 1905, 1907, 1908, 1910, 1915, 1918, 1921, 1922, 1923) [4].

Bu kasallik doimo aholi sog‘lig‘i va mamlakatga xavf solib turdi. Dastavval ushbu kasallik Jizzax hududida qayd etildi, keyinchalik Toshkent va Turkistonning boshqa viloyatlari ham ushbu kasallik tufayli katta talofot ko‘rdi. Masalan, o‘sha davrda faoliyat yuritgan matbuotda keltirilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, 1889-1891 yillarda Jizzax uyezdida bezgak epidemiyasi tarqalgan. 1889 yilda shifoxonaga 16 986 nafar, 1891 yilda 30 809 bemor shunday kasallik tufayli murojaat qilgan. Jizzax uyezdida 1889-1891 yillarda bezgak kasalligidan 1892 yilda keng tus olgan vabo kasalligiga qaraganda bir necha barobar ko‘proq aholi qirilib ketgan.

1888-1891 yillarda Samarkand viloyatining ba‘zi bir qishloqlarida bu kasallikdan aholining deyarli yarmi qirilib ketgan. 1892 yil 31 mayida Jizzax shahridagi harbiy qismda vaboga uchragan 32 ta askardan 21 tasi vafot etadi. Shuningdek, Jizzax uyezdiga ko‘chib kelgan rus dehqonlari orasida ham kasallik avj oladi. Samarqand viloyati harbiy gubernato‘ri N. Rostovsevning buyrug‘iga ko‘ra, barcha temir yo‘l bekatlarida kuzatuv nuqtalari tashkil etiladi. Ammo kasallik tez orada butun viloyat bo‘yicha tarqalib ketadi va 4916 ta odamni o‘limiga sabab bo‘ladi. Mirzacho‘lda esa vabo tufayli 93 kasaldan 44 tasi vafot etgan[5]. Shuningdek, Jizzax shahrida shifokor nazoratida bo‘lgan 93 nafar rus bemordan 44

nafari vafot etgan bo‘lsa, tibbiy yordamga muhtoj 431 shaharlik, Jizzax uyezdida esa 2412 jizzaxliklar chorasiz vabodan o‘lgan ya’ni ushbu bemorlar umuman shifokorga murojaat qilmagan[6].

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan aholiga epidemiyalar vaqtida yetarlicha tibbiy yordam ko‘rsatilmaganligi hamda axoli har doim ham rus tibbiy hodimlariga murojat kilavermaganligi aniqlangan. Turkiston general-gubernato‘rligining barcha joylarida shunday ayanchli ahvolni kuzatish mumkin bo‘lgan. Demak, kasallik shaharning rus qismida yashovchi aholini ham qamrab olmaguncha, mustamlakachilar yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan omillarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tadbirlar olib borilmagan.

Tibbiyot mutaxassislari bilan ta’minlanganlik holati. 1900 yili rus imperiyasi amaldorlarining oila a’zolari uchun uch nafar o‘rta ma’lumotli tibbiyot xodimdan iborat shifoxona ochiladi. 1908 yili harbiy shifokor I.N.Sametskiy shifoxonaga rahbar qilib tayinlanadi [7].

O‘z navbatida o‘lkada Jizzax aholisi uchun tibbiy xizmat yo‘lga qo‘yilmaganligi kuzatilsa, ikkinchi tomondan oliy ma’lumotli tibbiyot mutaxassislarning bo‘lmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, 1911 yilgi matbuot sahifalarida hududlarda shifokor yo‘qligi, ularning o‘rnida saviyasi past, johil va qo‘pol muomalada bo‘ladigan feldsherlar faoliyat yuritayotgani yozilgan. Shunday xabarlardan birida “shifokorlar haqida aytadigan gap yo‘q, ular umuman yo‘q. Ayrim tumanlarda (masalan, Jizzax, Kattaqo‘rg‘on, Samarqand viloyati va boshq.) shifokorlar yo‘q, ularning o‘rniga feldsherlar ishlamoqda – bu feldsherlar ko‘p hollarda nodon, qo‘pol, savodsizdir” deya qayd qilingan. Achinarli jihati esa “bu xodimlar hatto feldsherlik maktabini ham tugatmagan sobiq harbiy feldsher askarlar” bo‘lib, ular fuqarolarga tibbiy xizmat ko‘rsatish malakasi u yoqda tursin, odamlar bilan muloqot qilish, salomatlikni asrashga doir qoidalarni sodda tilda tushuntirish qobiliyatiga ham ega emasdi. Asosiy oliy ma’lumotli mutaxassislar esa

shaharning yevropaliklar yashaydigan qismida va davlat manfaatidagi shifoxonalarga yo‘naltirilgan[8].

Endilikda, 1900 yili ochilgan shifoxona 1910 yili bir shifokor va beshta o‘rta ma’lumotli hamshiralardan iborat shahar ambulatoriyasiga aylantirilgan. Ushbu tibbiyot xodimlari butun Jizzax uyezdi aholisiga tibbiy xizmat ko‘rsatgan [9].

Umuman olganda Rossiya imperiyasi avvalo harbiy xizmatchilari va rus aholisi uchun Turkistonga zamonaviy tibbiyotni olib kirib, ularning salomatligi haqida qayg‘ura boshladi. Ammo, o‘lka aholisining salomatlik masalalari kun tartibidagi masalalarning eng oxirgilari yoki umuman kun tartibidan joy olmagan holatlari ham bo‘lganligi, aniqlangan. O‘z navbatida bunday yondashuv orqali turli yuqumli kasalliklarning avj olishi, o‘limlar soning ortishi, nogiron avlodlarning dunyoga kelishiga olib kelgan.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Meditsinskiy jurnal Uzbekistana”, 1967, № 11, s. 30-34.
2. Abror Nazarovich Sanaqulov (2024). VIRTUAL REALLIK FALSAFIY MUAMMO SIFATIDA. *Academic research in educational sciences*, 5 (11), 198-204.
3. G.Qosimova. Jizzax oblastida sog‘liqni saqlashning revolyutsiyadan ilgarigi taraqqiyoti, T., “Meditsina” nashriyoti, 1985 yil, 4-6 betlar.
4. G‘ulomov, I. I., & Kasimova, Z. (2022). O ‘ZBEKISTON SSR AHOLISINI RO ‘YXATGA OLISH. *Scientific journal of the Fergana State University*, (2), 14-14.
5. Gulamov, I. (2023). DEMOGRAPHIC POLICY OF 1939: BY THE EXAMPLE OF THE ACQUISITION EVENT IN REGISTER OF THE POPULATION OF THE UZBEK SSR. In *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 125-127).
6. Gulomov, I. (2020). 1926 CENSUS OF THE POPULATION OF THE UZBEKISTAN SSR THE EVENT AND ITS HISTORICAL IMPORTANCE TODAY. *Journal of Critical Reviews*, 7(7), 1464-1472.
7. Gulomov, I. Organizational Behavior AND Leadership. *Green Economy and Development*, 2(4), 663644.
8. Gulomov, I., & Rasulova, R. (2024). RETRACTED: Environmental policy and the environmental situation in the countries of Central Asia. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 116, p. 07013). EDP Sciences.
9. H. Haydarov. Jizzax viloyati tarixi. Toshkent. 1996. 223-226 betlar.
10. Mamayusupov, U. (2025). Jamiyatni boshqarishda ilmiy bashoratning metodologik va prognostik vazifalari. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук *Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 5(10s), 185-189.
11. Mamayusupov, U. (2025). THE IMPORTANCE OF STRATEGIC PLANNING IN THE DEVELOPMENT OF. *Scientific journal of the Fergana State University*, (5), 61-61.
12. Mamayusupov, U. Q. (2015). Philosophical and methodological analysis of the starting point of the problem of scientific prediction. *Theoretical & Applied Science*, (5), 30-33.
13. S. Shodmonova. Turkiston tarixi-matbuot ko‘zgisida. Toshkent. 2011. 125-126 betlar.
14. X. Jumanazarov. Turkistonda milliy tib an‘analari va tibbiyot tarixi (XIX asr oxiri –XX asr boshlari). Toshkent. 2024. 78-79 betlar.
15. Абдурахимова, Ш. А. (2021). Статистические данные и письма как источники по истории здравоохранения Узбекистана в 1980-1990 гг. In *Архив в социуме-социум в архиве* (pp. 359-360).
16. Абдурахимова, Ш. А. (2022). Из истории деятельности военно-медицинских учреждений эвакуированных в Узбекскую ССР.

17. Абдурахимова, Ш. А. (2023). ОСУЩЕСТВЛЕНИЕ АГИТАЦИОННО-ПРОПАГАНДИСТСКОЙ РАБОТЫ В ЭВАКУАЦИОННЫХ ГОСПИТАЛЯХ УЗБЕКСКОЙ ССР. In *Войны в истории. 1943-й: год коренного перелома во Второй мировой войне. Новые архивные документы, новые подходы, новые интерпретации* (pp. 5-11).
18. Абдурахимова, Ш. А. (2026). ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА КОММУНИКАТИВ ЁНДАШУВНИНГ САМАРАДОРЛИГИ. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR*, 2(7), 268-270.
19. Колосова Г. О народном врачевании у сартов и киргизов Туркестана. – СПб. 1903. – 100-стр.
20. М. Шифрин. Как боролись с риштой в Средней Азии. <https://mytashkent.uz/2017/02/04/kak-borolis-s-rishtoj-v-srednej-azii/>.
21. Магзумов Б. Х., “Материалы к истории холерных эпидемий в Туркестанском крае в 1872-1921 гг.
22. Туркестанские ведомости. – 1911 год, № 76.

SHO‘BA I.

TURON TAMADDUNI VA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH MASALALARI.

Yaxshilikov Jo‘raboy Yaxshilikovich. AHLOQIY BARKAMOLLIK – JAMIYAT HAYOTINI RIVOJLANTIRUVCHI KUCH SIFATIDA.....	13
Qiyom Nazarov. O‘ZBEK FALSAFASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA IMKONIYATLARI.....	15
Ramatov J.S. GLOBALLASHUV SHAROITIDA INSON MOHIYATINING TRANSFORMATSIYALASHUVI.....	20
Muhammadev Nurmuhammad Ergashevich. GIPPOKRATINING SHIFOKOR ETIKASI HAQIDAGI TARIXIY - FALSAFIY QARASHLARI ..	23
Akbar Saitkasimov. ZAMONAVIY SHAROITDA TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR UYG‘UNLIGINING IJTIMOIIY TARAQQIYOTGA KONSTRUKTIV TA’SIRI.....	27
Сайфунов Бауыржан, Давлетбаева Айжан. НАСЛЕДИЕ ТУРАНА И НАЦИОНАЛЬНАЯ ИДЕНТИЧНОСТЬ: ФЕНОМЕН ЯСАВИ.....	31
Rahela Abdul Rahim, Abd Rahim Romle. EMERGING VOICES IN RESEARCH: THE NEXT GENERATION’S IMPACT.....	47
Bidauletova Aigerim Daurenovna, Ivanova Dzhuliya Stanislalovna. FASHION AS A WAY OF SELF - EXPRESSION AMONG YOUNG PEOPLE.....	52
To‘xtayev Hakim Primovich. BUYUK MUTAFAKKIRLARIMIZ MEROSIDA AXLOQIY QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI.....	56



Uzokov Botir. ABU NASR FOROBIYNING DAVLAT VA HUQUQ HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI.....	60
Djurayev Lukmon Narzullaevich, Ro‘zimurodov Siroj Madatovich. JAMIYATIDA YOSHLAR IQTISODIY MADANIYATINING TRANSFORMASİYALASHUVI.....	65
Эшбекова Санобар Омонликовна. ВОПРОС ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ МИЛОСЕРДИЯ В СЕМЬЕ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	69
Rajabova Aziza Sayfiddin qizi. РЕФОРМЫ ИЗБИРАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ: ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО ОПЫТА И МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ..	73
ANVAR BO‘RONOV. YAHUDIY DINIDAGI TURKIYLAR: MADANIY VA LINGVISTIK SINKRETIZM.....	75
Quvvatov Sardor Isomiddinovich. TURON TAMADDUNI MEROSINING MILLIY O‘ZLIKNI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI.....	82
Hazratova Sabina, Primkul Kulmatov Melikuziyevich. YOSH AVLODNING MA’NAVIY ONGINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLAR.....	85
Siroj Ro‘zimurodov. YOSHLARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOYIY MULOQOT VA MILLIY ONGNING O‘RNI.....	91
Xidirov Xoshim Ibodullaevich. KORRUPTSIYA HOLATLARINING OLDINI OLISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI.....	94
Olimov Nodirbek Anvarjon o‘g‘li. QO‘QON XONLIGI DAVRIDA FARG‘ONA VODIYSI ETNIK HOLATI.....	99
Ахмедов Жалол Турсунмуратович, Ибрагимов Шерали Фарходович. Историко-сравнительный анализ истории народов Центральной Азии.....	103
Жумаева Шахло Суюновна. ВОПРОС НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЖАДИДИСТОВ.....	107
Бердимуратов Арыслан Аймурзаевич. Хожаниязова Серегул Парахатовна. РАЗРАБОТКА И ВНЕДРЕНИЕ УСТРОЙСТВА НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ДЛЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ ПОДДЕРЖКИ ЛИЦ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ.....	111
Махмудов Obloqul Toxirovich. KAMBAG‘ALLIKKA QARSHI KURASHISH – DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR VAZIFALARIDAN BIRIDIR.....	115
Kambarova Dilfuza Solijonovna. MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH MASALALARI.....	118
Mardiyeva Guzal Karimovna. XX ASR 50-60-YILLARDA O‘ZBEKISTON XALQ TA‘LIM TIZIMIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI.....	122
Облобердиев Жасурбек Косим угли. ПОЛИТИЧЕСКИЕ	125

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
“SUN’IY INTELLEKT DAVRIDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH: TURON
TARIXIY MEROSI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH” JIZZAX 4.04.2026 yil

ПРОЦЕССЫ ПРИ ЭМИРЕ АБДУЛАХАДЕ.....	
Abduraximova Shaxnoza Asatullaevna. JIZZAX UYEZDINING AHOLI SALOMATLIGI VA TIBBIY XIZMAT MASALALARI (1866-1910 YILLAR).....	129
Turg`unova Sarvara Turdibek qizi. MILLIY O`ZLIKNI ANGLASHNING FALSAFIY ASOSLARI.....	132
To`xtayeva Matluba Xakim qizi. YANGI O`ZBEKISTON SIVILIZATSIYASIDA HADISSHUNOSLIK MAKTABI: INTELLEKTUAL MEROS VA MADANIYATLARARO MULOQOT ISTIQBOLLARI.....	134
Atayeva Dilfuza Pulatovna. TURON ZAMININING O`ZIGA XOS GEOSIYOSIY VA MADANIY HUDUD SIFATIDA MILLIY O`ZLIK VA MILLIY G`URURNI ANGLASHDA TUTGAN O`RNI VA AHAMIYATI.....	138
Azizqulov Akram Abdurahmonovich. TURON TAMADDUNIDA BAG`RIKENG MADANIYATI	141